

MALAKALI YURIDIK YORDAM OLIISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY MAZMUNI

Jumaniyozova Gulposhsha Matnazar qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti" Yurisprudensiya yo`nalishi 248-guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi malakali yuridik yordam olish huquqining konstitutsiyaviy mazmuni, uning huquqiy asoslari va shaxs huquqlarini himoya qilishdagi o`rni tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur huquqni ta`minlashda davlatning vazifalari va advokatura institutining ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *malakali yuridik yordam, konstitutsiyaviy huquq, advokatura, inson huquqlari, huquqiy himoya, adolatli sudlov*

Аннотация : *В данном тезисе анализируется конституционное содержание права на получение квалифицированной юридической помощи, его правовые основы и значение в защите прав личности. Также раскрывается роль государства и института адвокатуры в обеспечении данного права.*

Ключевые слова: *квалифицированная юридическая помощь, конституционное право, адвокатура, права человека, правовая защита, справедливое судопроизводство*

Malakali yuridik yordam olish huquqi inson va fuqaroning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo`lib, shaxsning o`z huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishi hamda himoya qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mazkur huquq bevosita mustahkamlangan bo`lib, u qonun oldida tenglik, adolatli sudlov va huquqiy himoya prinsiplari bilan uzviy bog`liqdir. Mazkur huquq, avvalo, shaxsning huquqiy bilim va tajriba yetishmasligi sharoitida malakali mutaxassis — advokat yoki boshqa yuridik yordam ko`rsatuvchi shaxs orqali o`z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini kafolatlaydi. Ayniqsa, jinoyat, fuqarolik, ma`muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishda malakali yuridik yordam shaxsning protsessual huquqlarini to`liq ta`minlashga xizmat qiladi. Malakali yuridik yordam olish huquqining konstitutsiyaviy mazmuni faqatgina yordam olish imkoniyati bilan cheklanmay, balki bu yordamning sifatli, professional va qonuniy bo`lishini ham nazarda tutadi. Shu bois davlat mazkur huquqni amalga oshirish uchun advokatura institutini rivojlantirish, bepul yuridik yordam mexanizmlarini joriy etish va aholining huquqiy ongini oshirish choralarini ko`radi.

Ma`lumki, so`nggi yillarda yurtimizda sud-huquq tizimini yana-da demokratlashtirish va erkinlashtirish, ushbu sohada shaffoflik hamda samaradorlikni ta`minlashga qaratilgan keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda, aniqsa, "Inson qadri uchun" tamoyiliga alohida e`tibor qaratilayotir.

O'z navbatida, yangilanishlar jarayonida qator vazifalar yuzaga chiqib kelayotganini ham aytish zarur. Shu jumladan, advokaturani zamon talabiga mos sohaga aylantirish dolzarb masalalardan sanaladi.

Shu maqsadda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashning samarali institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning o'rni va ahamiyatini oshirishga katta e'tibor qaratilyapti. Buni Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasida ushbu sohani isloh etishga keng urg'u berilgani va o'tgan davrda salmoqli ishlar bajarilgani misolida ham kuzatish mumkin.

Shularga mos ravishda davlatimiz rahbari tomonidan muhim vazifa va masalalar belgilanib berildi. Davlat hisobidan bepul ta'minlanadigan advokatlarni elektron tanlash tizimini to'liq ishga tushirish, sudlarga jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilanmas, balki himoyachi fikri bilan birga qabul qilinishi, ayblanuvchining himoyachidan voz kechishi bo'yicha har bir holat prokuror, sud tomonidan sinchiklab o'rganiladigan tizim yo'lga qo'yilishi, advokatga jinoyat ishi qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarordan to'sqinliklarsiz nusxa olish imkoniyati yaratilishi singari vazifalar ana shular jumlasidandir. Negaki, bularning muvaffaqiyatli bajarilishi sud va tergov protsessida advokatning rolini yana-da oshirishga zamin yaratishi kunday ravshan haqiqat.

Aytish joizki, o'tgan davrda advokatura instituti hamda advokatlar mustaqilligini ta'minlashga, sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida taraflar tortishuv prinsipi asosida ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rildi, muhimi, advokatlar o'z professional faoliyatini olib borishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi. Ammo bugungi tezkor zamonda shularning o'zi bilan kifoyalaniq qolish mumkin emas. Ya'ni davr oldimizga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, bugun advokat maqomiga ega bo'lishni va advokaturaga ishga qabul qilish tartib-taomilini yana-da soddalashtirish hamda advokatlik faoliyati uchun maxsus litsenziyani olish tartibini yengillashtirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran, o'z tanloviga ko'ra, advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Bu fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari asosiy qonunning yigirma to'rtinchi bobi. Advokatura deb nomlanadi.

141-modda.

Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi.

Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi.

Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi.

142-modda.

Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yol qo'yilmaydi.

Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, malakali yuridik yordam olish huquqi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim konstitutsiyaviy kafolat bo'lib, inson huquqlarining real ta'minlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Konstitutsiya. 2023
2. Advokatura to'g'risida qonun
3. Advokatura darslik. D. Habibullayev. TDYU, 2019